

Uzbekistan Airways Kuala-Lumpurdagi Roadshow'da

2026 29 Yanvar

Kuala-Lumpurda Uzbekistan Airways'ning Malayziyadagi vakolatxonasi tomonidan Smart Global Adventures kompaniyasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan "O'zbekiston va Markaziy Osiyo" B2B Roadshow bo'lib o'tdi.



Tadbirda O'zbekistonning 10 ga yaqin turoperatorlari va Malayziyaning 100 dan ortiq turizm sohasi vakillari ishtirok etdi.



Uchrashuv doirasida Uzbekistan Airways aviatsiya imkoniyatlari, yo'nalishlar tarmog'i va parvozlar soni haqida ma'lumot berdi. Bugun, 29-yanvar kuni Singapurda B2B Roadshow seriyasi davom etadi.





Toshkent – Kuala-Lumpur – Toshkent yoʻnalishi boʻyicha parvozlar Boeing 787 Dreamliner havo kemasida chorshanba va yakshanba kunlari, ortga qaytuvchi parvozlar esa dushanba va payshanba kunlari amalga oshiriladi.